

3. O'zbekiston Respublikasi "Ma'naviyat va ma'rifat" to'g'risidagi qonuni. (2017). — Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda ta'lim tizimining roli va ahamiyatini belgilaydigan hujjat.

4. Islombekov, K. (2018). Pedagogik texnologiyalar va ta'limda axloqiy qadriyatlar. Toshkent: Fan. — O'quvchilarni axloqiy masalalar orqali tarbiyalash va pedagogik texnologiyalar haqida ilmiy ish.

5. Nazarov, M. (2019). Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va jamiyatdagi roli. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti. — Yoshlarni tarbiyalashda axloqiy qadriyatlarning o'rni va jamiyatdagi ahamiyati haqidagi ilmiy tadqiqot.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH.

Jo'rayeva Adolat Sheraliyevna

Annotatsiya . Ushbu maqola Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun texnologiyalari va STEAM metodini yoritadi. Hamda Ijodiy fikrlash orqali muammolarni ijobiy hal qilishda yordam beradi. Maktabgacha ta'lim va ijodiy fikrlashga qisqacha tarif beradi. Suhbat metodidan unumli foydalanish va Kitob o'qishni samaralari haqida

Kalit *so'zlar:* *Maktabgacha ta'lim, ijodiy fikrlash, qobiliyat, markaz, kitob, rivojlantirish,*

Maktabgacha ta'lim-Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon.

Ijodiy fikrlash-odamlarga innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarga noyob yechimlar topish va muammoli vaziyatlarga yangicha yondashish imkonini beradigan aqliy qobiliyat va usullar. Sodaroq aytganda, ijodiy fikrlash qobiliyatlari sizning ijodkorlik uchun vosita to'plami bo'lib, o'ziga xoslik bilan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

Ho'sh bizga ijodiy fikrlash nima uchun kerak? Va nega maktabgacha yoshdagi bolalardan rivojlantirish kerak?

Ijodiy fikrlash sizga yangi istiqbollar bilan muammolarni yechishda yordam beradi, bu esa yanada samarali va innovatsion qarorlarga olib keladi. Ular ilm-fan, texnologiya, san'at yoki biznes sohalarida innovatsiyalarni boshqaradi. Bu yangi ixtirolar va yangi g'oyalar ortida turgan vosita. Bizning tez sur'atlar bilan rivojlanyotgan dunyoyimizda moslashish juda muhim. Ijodiy fikrlash qobiliyati bizga ko'proq moslashishga yordam beradi, chunki ular o'zgarishlarga duch kelganda yangi g'oyalar va strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin. Bu uddaburon dunyoda ijodiy fikrlash yuqori baholanadi. Bu obro'y oshishiga olib kelishi mumkin, chunki u odamlardan ajralib turishga, murakkab muammolarni hal qilishga va tashkilotlarda innovatsiyalarni rivojlantirishga imkon beradi. Ijodkorlik tajribani boyitish, o'zini namoyon qilishni rivojlantirish va dunyoni ko'rish uchun noyob ob'ektivni taklif qilish orqali hayot sifatini oshiradi. Shunday ekan biz kichik yoshdan ijodiy fikrlashni rivojlantirib borsak, bolalar ijtimoiy muhitga kirishib ketishi tezlashadi va muammolarga to'g'ri yondashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolada bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. Bolaning berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanish, ijodiy faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rajalashtirilgan, me'yori va mezonlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Shaxsdagi ijodiy fikrlash qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkin? Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi ko'p qirrali pedagog-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir. Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib boradigan har bir shaxs yurish turishi, odobi, xulqi, hatti-harakatlari va o'zining barcha xususiyatlari bilan bolalarga o'rnak bo'ladilar. ‘Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari’ va ‘Ilk qadam’ davlat o'quv dasturi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini berdi. Har bir faoliyat davlat o'quv dasturi asosida tashkillashtirilsa bolalarning har tomonlama rivojlanishini taminlaydi. Markazlarda olib borilyotgan faoliyatlar vijdonan to'g'ri tashkillashtirilsa bitta markazini o'zida bolaning nutqiy, hissiy, ijodiy, jismoniy, axloqiy xususiyatlari shakllanadi. Misol uchun til va nutq markazini oladigan bo'lsak bolaga she'riy ertak o'qib bersak va so'zlariga mos harakatlar qilsak bolaning qiziqishi ortadi hamda jismoniy mashq, xafa bo'lgan joylarini mayus ovozda o'qib bersak bolani hissiy emotsiyasi ham shakllanib boradi. Yoki bo'lmasa fan va tabiat markazini oladigan bo'lsak rasmlar orqali meva, sabzavot, o'simliklarni ko'rsatib bu nima? Deb so'rasak bolalar nutqi orqali javob beradi va nutqi to'g'ri shakllanadi, yoki o'yin tariqasida tashkillashtirib ko'zni bironta ro'mol bilan bog'lab qo'li bilan ushlab, paypaslab nimaligini topsa bolada sensomatorika rivojlanadi hamda ijodiy

fikrlashini rivojlantiradi. Har xil muammoli vaziyatlar aytib berib bolalardan nima qilsak bo'ladi deb aqliy hujum uyushtirsak bola ko'rsatadi. Bola ijodiy rivojlangan va yuksak ma'naviyat egasi bo'lishi uchun kichikligidan kitobga, adabiyotga muhabbatini shakllantirib borish kerak. Kitobga oshno qalblar hech qachon yutqazmaydi.... Quyidagi so'zlar ham bejiz emas: Bugun bitta kitob o'qigan bola, ertaga 10 ta televizor ko'rgan bolani boshqarishi mumkin. Shavkat Mirziyoyev.

“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturida STEAM texnologiyasini qo'llash orqali takomillashtiriladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun STEAM dan foydalanamiz. Kundalik qo'llaniladigan so'zlarni olamiz va ularni ijobiy hamda salbiy tomonlarini ko'rib chiqamiz. Bizni kayfiyatimizni yaxshilaydigan va yomon qiladigan so'zlar haqida bollar bilan suhbat olib boramiz, S-Science (fan)

Keyingi qismida so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib ko'ramiz bu oraqali bolalarda so'zlarni bo'g'inlashni o'rganamiz va so'zlar harflardan harflar esa tovushni yozma ifodasiligi haqida aytamiz. T-texnologiya “ o'zo'rniga qo'y metodi”

Endi harfli kartochkalarni ketma ketlikda tuzib oddiy so'zlar tuzamiz. Yokida tovush hosil bo'lish jarayonini tushuntiramiz. E-muhandislik

Bitta harf tanlab shu harf boshlanadigan so'zlarni, ismlarni o'rgatish mumkin. A-sa'nat

Bitta so'zda nechta harf borligini hisoblatish. M-matematika

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdan bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirib borsa bo'ladi. Bunda ma'naviyati, dunyo qarashi, ongi, tafakkuri teranlashib boradi. Bolalar o'yinga qiziquvchan bo'ladi shuni uchun faoliyatlarimizni o'yin tariqasida o'tib bersak ularga bergan bilimlarimiz oson qoladi. Har bir shaxsni qalbida kichik bolalik bor. Bolalar davrasiga kirganda o'sha kichik bolalikni ko'rsatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Otaxonova Manzura G'ofurovnani Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirish texnologiyalar noyabr, 2023
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti

NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI SO'Z YASASHGA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI

Vaxobova Mohida Ne'mat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti